

Xitoy elchisi institutimizda

Xitoy elchisi Szyan Yan rasmiy TIQXMMIga tashrif buyurdi. Dastavval, mehmon Innovatsiya va ilmiy tadqiqotlar klasterida xitoylik TIQXMMI magistrantlari, talaba va til kurslarida ta'lif olayotgan o'quvchilar bilan suhbat o'tkazdi. Xitoylik o'quvchilar o'zlarini tanishtirgandan so'ng elchi uchun o'zbek va rus tillarida she'rlar aytib, qo'shiqlar kuylashdi. Bundan ruhlangan Xitoy elchisi O'zbekistonda til o'rghanish va ta'lif olishning bir necha ijobiy jihatlarini sanab o'tdilar. Jumladan, til o'zlashtirish bilan birgalikda ming(lab) yillik tarixga ega o'zbek xalqining madaniyati, urf-odatlari va tarixini o'rghanish zaruriyatini ham his etdilar.



Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor A.Salohiddinov institutning faoliyati xususida taqdimot o'tkazdi. Szyan Yan institutning keng qamrovli ta'lif va ilmiy faoliyatini yuqori baholab, ijobiy taassurot bilan uchrashuvning navbatdagi raund (qismi)ga o'tildi.

Uchrashuvning navbatdagi qismi videokonferensiya zalida davom etdi. Uchrashuvda institutning 5 nafar talabasi Xoxay universitetida ta'lif olayotgani, POWER CHINA bilan yo'lga qo'yilgan hamkorlik rishtalari va Xitoyning Nanking universitetida yo'lga qo'yilishi kutilayotgan qo'shma magistratura dasturlari haqida ma'lumot berildi. Institut talabalari Xoxay universitetlarida iqtidorli talabalari qatorida ta'lif olayotgani va xitoylik korxonalar ishga olib qolish bo'yicha takliflar bildirayotganini iftixon bilan ta'kidlandi.



Institut rektori U.Umurzakov TIQXMMIda O'zbekistonda birinchilardan bo'lib, smart (aqlii) universitet tashkil qilinayotgani haqida so'z yuritishdi. Smart universitetning auditoriyalar ko'rinishi, aqlii qurilmalar orqali talabalarni nazorat qilinishi va interaktiv doskalar orqali ta'lif berish imkoniyatlarini batafsil yoritib berdi. Bundan katta taasurot olgan xitoylik elchi HUAWEI bilan aloqalarni yanada kuchaytirishni va smart universitetini tashkil etishda ularni kengroq jalb qilishni tavsiya etdi. So'ngra o'zaro sovg'alar almashildi va Szyan Yan institut faxriy mehmonlar kitobiga iliq fikrlarini yozib qoldirishdi.



Keyin esa TIQXMMI qoshidagi International House akademik litseyining smart auditoriyalarini borib ko'rishdi. Xitoy elchisi Szyan Yan institutning keng qamrovli faoliyatidan katta taassurotga ega bo'ldi, shuningdek, Xitoy bilan aloqalarni yanada kuchaytirishda faollilikni qo'llab-quvvatlanishini ta'kidlab o'tdi.

Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov